

ATTITUDES TO FUTUWAT IN SOURCES OF SUFISM

Muslima Xolboyeva

Magistrant, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent

Abstract: This article analyzes futuwwat, one of the main pillars of mysticism, and the views expressed about it in mystical sources.

Keywords: Sufism, Futuwwat, Prophets, Morality, doctrine.

TASAVVUF MANBALARIDA FUTUVVATGA DOIR QARASHLAR

Muslima Xolboyeva

Magistrant, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasavvufning asosiy ruknlaridan biri bo'lgan futuvvat va u haqida tasavvuf manbalarida keltirilgan qarashlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Tasavvuf, futuvvat, payg'ambarlar, axloq, ta'limot.

Sharq Musulmon xalqlarining diniy tafakkurini tasavvuf tariqatlarisiz to'la tasavvur etib bo'lmaydi. Tasavvuf ta'limotidagi nazariy va amaliy jihatlar yoritib berilgan asarlar arab, fors va turk tillarida bitilgan bo'lib, ular orasida Sharq mutasavvufklarining risolalari alohida o'ringa ega. Misrlik tadqiqotchi olim, "Islomiy tasavvufning paydo bo'lishi" nomli kitobi muallifi doktor Ibrohim Basyuniy yozadi: "Tasavvufning qirqdan ortiq ta'rifi bor. Jumladan, Ma'ruf Karxiy (vaf. 200 h.) "Tasavvuf haqiqatlarni qabul etmoq, insonlarning qo'llaridagi narsalarga ko'ngil bog'lamaslikdir"; Abul Husayn Nuriy (vaf. 295 h.) "Tasavvuf qalbni faqatgina Allohga yo'naltirmoq va Allohdan boshqa narsalardan ko'ngilni mutlaqo uzmoqlik demakdir"; Ibn Xaldun (vaf. 808 h.) "Tasavvuf ibodatda astoydil davom etmoq, Allohga yo'nalmoq, dunyoning bezak va yolg'onchiligidan mutlaqo yuz o'girmoq, ko'pchilik e'tibor beradigan zavqu shavq, molu dunyo, shonu shuhrat kabilardan yuz o'girmoq, ibodat uchun xalqdan ayrilib, ibodatga kirmoqlikdir", degan [1:19]. Tasavvuf ta'limotini futuvvat ya'ni javonmardlik, mardlik, birodarlik, oliyanoblik bilan uyg'unlashishi tasavvufni jamiyat hayotiga kirib kelishida muhim omil bo'lgan. Futuvvat hunarmandlarning ijtimoiy siyosiy, diniy ahloqiy va mafkuraviy oqimi bo'lib, Movarounnahr, Xuroson va boshqa mamlakatlarda keng tarqalgan. Mutasavvufklarining fikricha, futuvvat payg'ambarlardan qolgan axloq yo'lidir. Xususan, Ibrohim va Yusuf payg'ambarlar, As'hobi kahf va Yusha fatiy deb atalgan. Ibrohim (a.s.) o'g'lini qurbon qilish buyurilganida xafa bo'lish o'rniga mamnun edi. Ziyofat bermoq va mehmonlarni qabul qilish undan qoldi. Shular tufayli ham, butlarni buzgani uchun ham, u fatiy nomini oldi. Yusuf (a.s.) ham o'ziga yomonlik qilgan birodarlarini kechirishi futuvvatga loyiq edi. Ashobi - Kahf botilga ergashmasdan Allohga ibodat qilgani sababli ular bu nomni oldilar. Musoning do'sti bo'lgan Yushaning axloqi futuvvatga mos kelganligi tufayli fatiy deb xotirlandi [2:4].

"Yoshlik, mardlik, saxovat" ma'nolarini anglatuvchi "futuvvat" so'zi arabcha "fatiy" (yosh) so'zidan olingan. Qadimgi arab manbalarida, fatiy atamasi ideal jihatdan xayolda salanib qolingani "olijanob va to'liq ma'nodagi odam"ni nazarda tutgan. Fatiynning mehmondo'stligi va saxiyligi oxirigacha, ya'ni o'zida hech narsa qolmaguncha va to'liq

faqir holatiga tushmaguncha davom etadi. Fatiy kurashda do'stlari uchun hayotini xavf ostiga qo'yadi. Futuvvatda saxiylik xususida Hotam Toy, jasorat borasida Hazrati Ali ibratli qahramon sanalgan [2:3].

"Diniy, intellektual, ijtimoiy, madaniy va siyosiy tarixda muhim o'rin egallagan futuvvat tushunchasi ikki ijtimoiy qatlamni o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra futuvvat tushunchasi intellektual jihatdan yoshlar ega bo'lishni xohlaydigan mardlik, saxovat-peshalik kabi axloqiy fazilatlarini, ijtimoiy jihatdan esa ana shu axloqiy fazilatlar atrofida birlashgan xalq tomonidan shakllangan ijtimoiy guruhlarni bildiradi" [3:3]. U axloqiy ideal sifatida islomgacha bo'lgan arab madaniyatiga borib taqaladi va Eronda islomning tarqalishi bilan qadimgi fors madaniyatida mavjud bo'lgan shunga o'xshash tushuncha bilan uyg'unlashib, "jivenmerdi" (javanmardlik) nomi bilan o'z hayotini davom ettirdi [2:5-6]. Jumladan, tasavvufda futuvvat haqida ko'plab asarlar mavjud. Eng tarixiy qiymatga ega futuvvat haqidagi asar bu Imom Abu Abdurrahmon as-Sulamiyning (vafoti milodiy 1021 yil) "Futuvvat risolasi" asaridir. Sulamiyning asarini tasavvufiy-axloqiy risola sifatida qabul qilish mumkinki, unda futuvvatning yuzdan ortiq fazilati sanab o'tilgan, har biri hadis yoki so'fiy kalima asosida yaratilgan [3:7-8]. Abbosiy xalifa Nosir Lidnillah davrida yashagan sunniy shayx Abu Xafs Shahobiddin Umar as-Suhravardiy (vafoti 1234) futuvvatni tasavvuf harakatining ajralmas qismi sifatida namoyish qilgan. As-Suhravardiy o'zidan keyin diniy ilmlarning har xil sohalarini hamda tasavvuf bo'yicha ko'plab asarlar yozib qoldirgan. Ularning orasida eng mashhuri o'z vaqtida uni qo'llab-quvvatlagan do'sti xalifa an-Nosirga bag'ishlangan "Avorif al-maorif"dir. Bu tasavvuf bo'yicha qo'llanma hozirgacha ham millionlab so'fiylar va oddiy musulmonlar orasida katta obro'ga ega [4:120].

XI asrda tasavvuf borasida fors tilida yozilgan eng qadimiy tazkira "Kashf ul-mahjub" da ushbu ta'limotning "binosi", ya'ni tuzilishi "sakkiz xislat"dan iborat deb ta'kidlanadi. Keyin bu xislatlarning har biri o'z navbatida payg'ambarlarning shu xislatlarga doir xususiyatlari bilan qiyoslanib, mazkur xislatlarning payg'ambarlar xislatidan sarchashma olganiga ishora etiladi. Shu tartibda mazkur tazkira muallifi Ali bin Usmon tomonidan tasavvuf "binosi" ga tom ma'noda diniy-irfoniy ohang beriladi. Chunonchi tasavvuf tuzilishining sakkiz xislatdagi sakkiz binosi (imorati) bunday ta'riflanadi:

Birinchisi "sahovat va u Ibrohim payg'ambardan nisbat oladiki, saxovatda tengi yo'q kishi edi. Chunonchi, farzandini xudo yo'lida qurbon qildi" va bu saxiylikni hech kim qilmagan edi. Ikkinchisi rizollikim, Ishoq payg'ambarga taaluqlidir. U Alloh farmoniga rozilik berib aziz jonini tark etishga rozi bo'ldi". Uchinchisi "sabrkim, Ayyub payg'ambardan ildiz oladi. Bu payg'ambar tanasini yetmish yil qurtlar yedi va u esa, bu baloyi azinmga sabr-bardosh qildi". To'rtinchisi "ishoratkim, Zikriyo payg'ambarga mansubdir" va beshinchisi "g'ariblikkim, Yahyo payg'ambar qismati bilan bog'liqdir. U o'z vatanida g'arib va qarindoshlar orasida begona edi". Oltinchisi "sayohatdakim, Iso payg'ambarning odatiga tutashadi. Iso sayru sayohatda mujarrad, ya'ni tanho (yakka) yurardi va bir kosa va bir taroqdan boshqa narsa olib yurmasdi". Yettinchisi "suf libosdakim, Muso payg'ambarning libosiga nisbat beriladi. Musoning jamiki kiyadigan kiyimi (to'ni) suf (jun mato)dan iborat edi". Sakkizinchisi "faqirlikdakim, Muhammad Mustafo (s.a.v) ning asl odatlaridan edi" [5:11]. Fatiylarning xulqi Rasululloh xulqlariga asoslangan. Aslida dunyodagi jamiki musulmonlar axloqini tarbiyalashda Rasulullohning go'zal xulqlariga asoslanishi kerak.

Futuvvat haqida yozilgan eng kerakli qimmatbaho manbalardan biri bu Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniy yoxud Javanmardlik tariqati" asaridir. Aynan

bu asarda futuvsat ilmining bosh mavzusi sifatida inson ruhi nazarda tutiladi hamda inson ruhini tarbiyalash, parvarishlash orqali go'zal hamda xulq-atvorli, fazilatli qilib yetishtirish mumkinligi keltiriladi:

“Bilgilkim, futuvsat ilmi sharif- mo'tabar ilmlardandir va tasavvuf bilan tavid ilmining bir bo'lagidir. Va olamning ulug' zotlari bu ilmda ko'p kitoblar bitibdirilar va uning ta'rifi, kamoli haqida ko'p sahifalarni qoralaganlar... Bas, bu muqaddimadan ravshan bo'ladiki, futuvsat ilmining o'z mavzui bor, bu mavzu – inson ruhi hisoblanadi. Zero insonning ruhini tarbiyalash , parvarish etish orqali uni go'zal va hamda xulq-atvorli, fazilatli qilib yetishtirish mumkin. Ammo inson ruhi tadqiqi va axloq martabalari bayoni ushbu muxtasar risolaga sig'maydi, bundan tashqari har bir ilmnng bahs etadigan (o'ziga xos) masalalari bor, barcha ilmlar shu tarzda bir-biriga bog'langan.” Bundan tashqari Koshifiy bu asarida futuvsatga doir bir qancha manbalarni keltirib o'tgan:

Va yana “Odobul futuvsat” (“Futuvsat odobi”), “Oriful masrif”, “Mirsodul a'bod” (“Bandalarning mushohada qiladigan joyi”), “Hadiqatul haqiqat” (“Haqiqat bog'chalari”) nomli risolalar, shuningdek, Jomiyning “Risoi sayr”, Zaria Isfahoniyning “Zodul axira” (“Oxirat ozuqasi”), Shayx Attorning “Tazkiratul avliyo” kabi kitoblari mavjud bo'lib, ularda bu sharif ilm- futuvsatning zikri va bu sifatga musharraf kishilarning ta'rifi berilgan.

Abdurahmon Jomiy “Subhat ul-abror” dostonida futuvsatga ta'rif berib, bu avvalo past xislatlarni tark etib, olijanoblikni kasb etish, deya ta'kidlaydi. Futuvsatning birinchi sharti – miskinlar dardiga davo bo'lish:

Chand ro'ze zi mustaqimon bosh,
Dar payi hojati miskinon bosh.
Sham' shav, sham', ki xudro so'zi,
To ba on bazmi kason afro'zi! [6:112]

Xoja Abduxoliq G'ijduvoni vasiyatlaridan biri shunday bo'lgan : “Ey farzand, fiqh va hadis ilmini o'rgan, johil so'fiylardan uzoq yur, moling fiqh kitoblari bo'lsin , biror kishi seni maqtasa , g'ururlanma, tanqid qilsa, ranjima. Insonlardan hech narsa so'rama, tama' qilma, futuvsat (saxovat) ahlidan bo'l, Haq taolo senga nimaiki bergan bo'lsa, xalqqa tarqat... biron bir mansab – maqomga intilma, boyu badavlat va raisu amirlarning huzurlariga borma, ular bilan hamsuhbat bo'lma... Raqsu samog'a haddan ziyod berilma” (Vasiyatlaridan) [7:19].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdulqahhor Shoshiy. Avliyolar kitobi. -T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2018.
2. Imom Abu Abdurahmon Sulamiy. Tasavvufda futuvsat. -T.: Anqara Universiteti bosmaxonasi, 1977.
3. Franz Taeschner, “Islom o'ta asrlarida Futuvsat tashkiloti”, Istanbul universiteti, Iqtisodiyot fakulteti jurnali, 15- jild, 1-5 bet. (1953 – yil oktabr – 1954- iyul).
4. H.Po'latov, M.Mamatov. Tasavvuf tarixidan lavhalar. -T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011.
5. A.Abdullayev.Tasavvuf va uning namoyondalari. -T.: Termiz, 2007.
6. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. -T.: “Movarounnahr”- “O'zbekiston”, 2009.
7. Xoja Abduxoliq G'ijduvoni. Maqomoti Yusuf Hamadoni. T.: “Yangi asr avlodi”, 2003.